

Italiya Prezidenti Serjio Mattarella Toshkentdagi Turin Politehnika universitetiga tashrif buyurdi

Joriy yilning 10 noyabr kuni, Italiya Prezidenti Serjio Mattarella O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida Toshkentdagi Turin Politehnika universiteti (TTPU) ga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmonni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Oripov boshchiligida O'zavtosanoat AK boshqaruvi raisi Ulug'bek Rozuqulov va TTPU rektori Jamshid Inoyatxodjaev kutib oldi.



Italiya delegatsiyasi tarkibi Italiyadagi Turin Politehnika universiteti rektori Gvido Sarakko, o'quv ishlari bo'yicha

prorektor Anita Tabakko va universitetning boshqa vakillaridan iborat bo'ldi.

Prezident tashrifining asosiy maqsadlaridan biri ustuvor yo'nalishlarda, xususan, sanoat transformatsiyasi sohasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash sanaladi. Bilim va tajriba almashish- doimo Italiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning asosi bo'lib kelgan, dedi Prezident Matarella o'zining rasmiy nutqida.





Gvido Sarakko prezident Mattarellaning tashrifi sharaflilik ekanini bildirib, 2009 yildan buyon TTPU O'zbekistonda muhandislik ta'limi va Italiya texnologiyalarini joriy etishda yetakchi o'rinni egallab kelayotganini ta'kidladi.







Tashrif doirasida universitet bo'ylab sayohat tashkil etildi, unda delegatsiya a'zolari universitetning elektron resurs markazi, madaniy meros texnologiyalari laboratoriyasi, shuningdek, sanoat 4.0 o'quv laboratoriyasi bilan yaqindan tanishdilar.





Shuningdek, TTPUga tashrif doirasida, “O‘zbekistonda sanoat transformatsiyasida ta’lim va innovatsion hamkorlik” mavzusida seminar tashkil etilib, unda Italiya delegatsiyasi “Sanoat 4.0” sohasidagi tajribasi bilan o‘rtoqlashdi. Ikki mamlakat universitetlari o‘rtasida ta’lim, tadqiqot va texnologiyalar transferi istiqbollari, shuningdek, 4.0 sohasidagi sanoat kooperatsiyasining ilg‘or tajribalariga alohida e’tibor qaratildi.